



## O'ZBEKISTONDA QISHLOQLARNING IQTISODIY VA IJTIMOIY AHAMIYATI VA ULARNI TADQIQ QILISH ZARURATI

**Haydarova Surayyo Abdusalomovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Geografiya va iqtisodiy  
bilim asoslari kafedrasida dotsenti.

**Jonuzoqova Suksur Saidolim qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti Geografiya o'qitish  
metodikasi yo'nalishi 4-kurs talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7672727>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 16-fevral 2023 yil  
Ma'qullandi: 20-fevral 2023 yil  
Nashr qilindi: 24-fevral 2023 yil

### KEY WORDS

*O'zbekiston qishloqlari, tarixi,  
qishloq xo'jaligi, mehnat  
resursi, aholi punkti, avlodlar  
almashinuvi..*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada qishloq so'zining kelib chiqishi,  
muayyan hududlar aholisining turmush tarsi,  
qishloqlarni iqtisodiy, ijtimoiy ahamiyati, ularni  
o'rganishning zaruriyati va ahamiyati haqida fikr  
mulohazalar bildiriladi.*

Qishloqlar haqida so'z yuritilganda, qishloq so'zining kelib chiqish tarixining muayyan hudud aholisining turmush tarzi, mehnat faoliyati bog'liq ekanligini hisobga olish zarur bo'ladi. Shuning uchun ham turli mamlakatlarda qishloq tushunchasi ostida turli shakl va funktsiyaga ega bo'lgan aholi punktlari birlashadi. Bu turli tipdagi aholi punktlari o'z shakli va funktsiyasi bilan bir-biridan katta farq qilsada, ulardagi aholining turmush tarzi bir-biriga yaqin turadi. Binobarin turli mamlakatlarda qishloq tushunchasining atamalari ham har xildir. Bunday farqlarga ega bo'lgan aholi punktlarini o'rganish natijasida muayyan mamlakatlar aholisining mehnat taqsimoti, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari haqida xulosa chiqarish mumkin.

Qishloqlar jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

Qishloqlarda avlodlar almashinuvi, aholining milliy qiyofasi, tarixiy kelib chiqishi va boshqa jarayon, hodisalar ochiq, ko'rinarli tarzda kechadi. qishloqlar etnografiya, tarix, tilshunoslik, aholishunoslik, sotsiologiya kabi fanlar uchun qiziqarli eksperimental ob'ektlardir.

O'zbekiston Respublikasida qishloqlar ishlab chiqarish, va mehnat resurslari borasida muhim rol o'ynaydi. Qishloqlardagi tabiiy sharoit qishloq aholisining mehnat faoliyatini belgilab beradi. Qishloq joylardagi ishlab chiqarish asosan qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lgan tarmoqlar kompleksini bunyod etishga sabab bo'ladi.

Qishloqlar aloqa yo'llari va turli ishlab chiqarish tarmoqlarini hududiy joylashtirishda asosiy tugunlar rolini bajaradi. Tabiiy sharoiti inson salomatligi uchun foydali bo'lgan qishloqlar dam olish zonalarini barpo etish uchun qulay ob'ektlardir. Sanatoriyalar, dam olish lagerlari qishloq joylar yaqinida barpo etiladi va bu zonalarining mehnat resurslari va moddiy bazasi sifatida bu qishloqlar muhim omil hisoblanadi. Qishloqlar transport

infrastrukturalarini joylashtirishda muhimdir nuqtalardir. Yangi yo'llar va transport vositalarining harakatida qishloqlar koridor vazifasini o'taydi.

Qishloq joylardagi turmush tarzi doimiy ravishda dehqonchilik, chorvachilik bilan bog'liqdir. Qishloq aholisining o'sib borishi natijasida qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholidan tashqari yangi ishchi kuchlari paydo bo'ladi va bu odamlar qishloqdan ajralmagan holda shaharda ishlay boshlaydi. Shahar sanoat korxonalarining mehnat resurslari bilan ta'minlanishida qishloqlar, ayniqsa shahar atrofida joylashgan qishloqlarning roli juda kattadir. Qishloqlarning mamlakat iqtisodiy ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlagan holda ularni geografik tadqiq qilishning usullari va jihatlari shahar aholi punktlarini tadqiq qilishdan boshqachaligini aytish joiz.

Qishloq xo'jaligi asosan ikki tarmoq: dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlariga ajralishini nazarda tutsak, bu yo'nalishlarning ham turli tarmoqlarga ajralishini ta'kidlashimiz lozim. Aynan ushbu ta'kid asosida qishloqlarning ixtisoslashuvi kelib chiqadi. Chorvachilikning qo'ychilik va qoramolchilik tarmoqlari mamlakatimiz qishloqlariga umumiy tarzda xosdir. Shuni ta'kidlash lozimki, bizning mamlakatimizda qoramolchilik qadimda chorvachilikning alohida yo'nalishi sifatida shakllanmagan. Shuningdek, parrandachilikni ham yangi shakllangan tarmoq sifatida ko'rishimiz mumkin. Lalmi va sug'orma dehqonchilik yo'nalishlarida asosan donchilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik rivojlangani holda, sobiq ittifoq davrida paxtachilikning yuqori darajada rivojlantirilishi yuz berdi.

Xususan, respublikamizni ikki asosiy mintaqaga ajratish mumkin bo'lsa va bu mintaqalarni tog' va tekislik deb atash mumkin bo'lsada, tekislik mintaqalarining o'zida turli tabiiy sharoit, jumladan cho'l, o'zlashtirilgan cho'l, daryo vodiylari va tog' oralig'i tekisliklari kabi hududlar ajratiladi. Bu mintaqalarning qishloq xo'jaligi har birida o'ziga xos yo'nalishda shakllanadi. Qishloqlarni tadqiq qilishda geografik o'rni alohida e'tiborga molikdir. Xo'jalik tizimini o'rganish iqtisodiy jihatdan muhim bo'lsa va aholining turmush tarzini umumiy ko'rinishda tavsiflab bersa, tabiiy geografik o'rni qishloqlar haqida yaxlit ijtimoiy va iqtisodiy, shu bilan birga madaniy, etnik nuqtai nazardan o'rganishda va xulosa chiqarishda muhimdir.

Tabiiy geografik o'rin xususiyati jihatidan qishloqlarni balandlik mintaqalari, tabiiy suv havzalariga bog'liq ravishda rivojlangan va ular asosida tuproq zonalari bo'yicha ajratish mumkin. Ayniqsa, balandlik mintaqalari va tabiiy suv manbalariga bog'liq rivojlanishi bo'yicha ajratish muhim ahamiyatga ega, chunki ayni holatlar qishloqlarga boshqa jihatlardan baho berishga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Qishloqlarni geografik tadqiq qilishda ularning demografik holatini tahlil qilish ham muhimdir. Chunki, ta'kidlanganidek, qishloqlar mamlakat uchun asosiy mehnat resurslarini etkazib beruvchi hududlardir. Bundan tashqari mamlakat aholisining tabiiy ko'payishi va milliy genofondining asosiy manbai ham qishloqlar ekanligi e'tirof etiladi. Qishloqlar aholisining demografik tahlili aholi soni va tarkibining davriy o'zgarishi va hududiy tafovutlarini o'rganishga asoslanadi. Shu bilan birga qiyosiy tahlil bu tadqiqotlarni to'ldirib boradi.

Mutaxassislarning ko'rsatishicha qishloq hududlarining demografik tahlilida quyidagilar o'rganilishi lozim:

- Aholi soni, uning o'sishi va joylashuvi;
- Aholining takror barpo etilishi (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish);
- Aholi tabiiy va mexanik harakatining demografik vaziyatga ta'siri;

- Aholining yosh va jins tarkibi;
- Aholining milliy tarkibi;
- Mehnat resurslari shakllanishining demografik asoslari va h.k.

Bu ko'rsatkichlar davriy o'zgarishlarda va hududiy qiyoslash usulida yoritilishi maqsadga muvofiqdir, chunki aholi uzluksiz miqdor jihatidan o'zgarishda bo'ladi. Qishloq aholisining ijtimoiy holati, ta'minoti, o'zaro aloqalarining geografik jihatlarini o'rganish ham qishloqlarni geografik tadqiq qilish jarayonining ajralmas qismidir.

Qishloqlarni tadqiq qilish usullarida asosiy o'rinni ularni guruhlashtirish, hududiy yaxlitlashtirish va qiyosiy geografik tahlil usullari asosiy o'rin tutadi. Bu o'rinda qishloqlarni aholi soni bo'yicha guruhlashtirish mezonlari va xo'jalik tizimlari bo'yicha ajratish haqida aytib o'tilganligini ta'kidlash mumkin. SHu bilan birga turli hududlardagi qishloqlarni o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha taqqoslash va aholi turmush tarzi, urf-odatlar va uy-joy qurilishi xususiyatlariga e'tibor qaratilishi haqida so'z boradi. Shu bilan birga qishloqlar toponimiyasi alohida e'tiborga molikdir. Aynan ushbu tadqiqotlar asnosida qishloqlar aholisining kelib chiqishi, ularning xo'jalik va turmush tarzidagi alohida jihatlari va qishloqlar tarixi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Qishloqlarni geogarfik tadqiq qilishning yuqorida ta'kidlab o'tilgan barcha jihatlari, qishloq aholi punktlarining respublikamizda katta ahamiyatga egaligini, umuman qishloqlarning jamiyat hayotida va taraqqiyotida tutgan o'rnini ta'kidlash va geogarfik tadqiqotlarning muhimligini ko'rsatishga xizmat qiladi. Qishloq aholi punktlarini har tomonlama geogarfik tadqiq qilish, mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy va shu bilan birga ekologik vaziyatni to'g'ri baholash, xulosa chiqarishga yordam beradi. Yangi xo'jalik tarmoqlarini shakllantirish va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlarini hisoblash bugungi kunda qishloq hududlari bilan bog'liqdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хайдарова, С., & Юсуфов, Ж. (2021). КОМПЕТЕНЦИЯВИЙ ЁНДОШУВ АСОСИДА ГЕОГРАФИЯ ДАРСЛАРИНИ ТАШКИЛЛАШТИРИШ. Журнал естественных наук, 1(2).
2. Usarov, J. E., Eshnayevev, N. J., & Haydarova, S. A. (2020). Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution. IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 5(8), 6.
3. Gapparov, A., & Khaydarova, S. (2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
4. Haydarova, S. (2021). GEOGRAFIYA DARSLARIDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISH. Журнал естественных наук, 1(1).
5. Haydarova, S. (2021). Geografiyani o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvning tatbiq etishning o'quvchi psixologiyasi bilan bog'liq jihatlari. Журнал естественных наук, 1(1).
6. Haydarova, S. (2021). GEOGRAFIYA FANI O'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI. Журнал естественных наук, 1(1).
7. Haydarova, S. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. Журнал естественных наук, 1(1).
8. Haydarova, S., Mavlonov, X., & Muxamedov, O. (2021). Arid mintaqalarda yer resurslaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari (Jizzax viloyati misolida). Журнал естественных наук, 1(1).
9. ABDUSALOMOVNA, H. G. F. O. Q., & KOMPETENTLIGI, V. U. Z. T. (2021). INTEGRATION OF

- SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 1, 02.
10. COMPETENCIES, A. K. F. O. P. (2020). OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1, 5.
11. Gapparov, A., Haydarova, S., & Zaynutdinova, D. (2020). Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши. Архив Научных Публикаций JSPI.
12. Haydarova, S., Kuldasheva, S., Abdullayeva, S., & Shokhrukh, K. (2021). Modern Technologies in Improving the Quality of Teaching. Журнал естественных наук, 1(1).
13. ABDUSALOMOVNA, H. S. (2021). GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 1(02), 29-36.
14. Komilova, N. K., Haydarova, S. A., Xalmirzaev, A. A., Kurbanov, S. B., & Rajabov, F. T. (2019). Territorial structure of agriculture development in Uzbekistan in terms of economical geography. J. Advanced Res. L. & Econ., 10, 2364.
15. Gapparov, A., Haydarova, S., & Kayumova, M. (2020). Жиззах вилоятида урбанизация жараени ва унга таъсир этувчи омиллар. Архив Научных Публикаций JSPI.
16. Abdusalomovna, K. S. (2020). FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCIES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. International journal of discourse on innovation, integration and education, 1(5), 384-387.
17. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. European science review, (3-4).
18. Haydarova, S. (2021). methods of assessing the practical competence of schoolchildren (on the example of geography). Журнал естественных наук, 1(1).
19. Haydarova, S. (2021). O'QUVCHILARNING GEOGRAFIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA PEDAGOGIC-PSIXOLOGIK YONDOSHUV. Журнал естественных наук, 1(3).
20. Усаров, Ж. Э., & Хайдарова, С. (2021). Фанни компетенциявий ёндошув асосида ўқитишнинг ўқувчи ёш психологик хусусиятларига боғлиқ жиҳатлари. Science and Education, 2(Special Issue 1), 266-275.
21. Gapparov A., Haydarova S., Zaynutdinova D. Мустақиллик йилларида Жиззах вилояти аҳолисининг демографик ривожланиши //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
22. Haydarova S., Usarov J., Eshnayevev N. defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
23. Haydarova S. et al. MIRZACHO'L O'LKASIDA EKOTURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI //Архив Научных Публикаций JSPI. – 2020.
24. Haydarova S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING ZAMONAVIY TALABLARI //Журнал естественных наук. – 2021. – Т. 1. – №. 1.
25. Nazarovna, T. Z., Azamkulovich, D. F., Jurayevna, M. N., & Abdusalomovna, H. S. (2016). Mortality and life expectancy rates of population of the Republic of Uzbekistan in the years after independence. European science review, (3-4).
26. ABDUSALOMOVNA H. S. GEOGRAFIYA FANI O 'QITUVCHISI KOMPETENTLIGI VA UNING

ZAMONAVIY TALABLARI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE.  
SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – T. 1. – №. 02. – C. 29-36.

27. Eshbekovich U. J., Jumayevich E. N., Abdusalomovna H. S. Defects in scientific research of the problems of spiritual and moral crisis and its solution //International Engineering Journal For Research & Development. – 2020. – T. 5. – №. 8. – C. 6-6.

28. Khaydarova, S. A. (2022). FORMATION OF PRACTICAL COMPETENCES OF SCHOOLCHILDREN IN GEOGRAPHY. Journal of Geography and Natural Resources, 2(01), 50-57.



INNOVATIVE  
ACADEMY